



O'ZBEK XALQI ETNIK TARIXIGA OID TADQIQOTLARNING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ILMIY NATIJALARI

Valisher Abirov

Katta o'qituvchi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HA QIDA

Kalit so'zlar: o'zbek, etnogenez, etnik tarix, el, xalq, millat, etnograf, manbashunos, o'zbek ulusi.

Annotatsiya: Mustaqillik yillarda Respublikamizda o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi masalasi yuzasidan olib borilgan izlanishlar tufayli ko'plab ilmiy yutuqlarga erishildi. Mintaqaning turli hududlarida etnografik, arxeologik, antropologik ekspeditsiyalar uyuşdırıldı, qadimgi qo'lyozma manbalar o'rGANildi, ilmiy – madaniy tadqiqotlar olib borildi, mavzuga oid xalqaro, respublika miqyosida konferensiya va anjumanlar o'tkazildi. Hozirgi kunda, muammo doirasida nashr etilgan monografiyalar, dissertatsiyalar, ilmiy to'plamlar, maqola va tezislarni xolis, yaxlit holda tizimli o'rGANish, tahlil etish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida 30 yildan ortiq davri davomida o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixiga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlarni tarixshunoslik jihatidan o'rGANish, yutuq va kamchiliklarini qiyosiy tahlil etib, ularning ilmiy ahamiyati va tarixiy haqqoniyligini aniqlash, bu boradagi bilimlar rivojini kuzatish, mualliflarning muammoni o'rGANish metodologiyasi, konsepsiysi va ilmiy natijalarini ko'rsatish Yangi O'zbekistonning tarixshunoslik va etnologiya sohasida amalga oshirilishi dolzarb bo'lgan tadqiqot ishi ekanligini belgilab beradi.

O'zbekiston hududidagi milliy davlatchilik tarixi 3 ming yildan ziyod davrni tashkil etadi. Mustaqillik yillarda o'zbek xalqining etnogeneziga (xalq sifatida shakllanishi) oid tadqiqotlar bilan bir qatorda, uning etnik tarixi, ya'ni xalq

sifatida shakllanib bo‘lgandan keyingi tarixini o‘rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo mahalliy olimlar orasida etnogenetika va etnik tarixni ajratib turuvchi mezonlarni tanlash bo‘yicha ham farqlar mavjud. Ba’zilar etnik tarixni xalqning eng qadimgi ajdodlari paydo bo‘lgan davr bilan bog‘lasa, boshqalar etnik tarixni IX-XII asrlar, ya’ni o‘zbeklarni xalq sifatida shakllangan davridan boshlanadi, deb hisoblaydi. O‘zbek xalqining etnik tarixi yuzasidan ko‘plab tadqiqotlar chop etilgan. Tadqiqotlardagi aksariyat xulosalar bir-biriga o‘xshash, hatto sovet davri izlanishlari xulosalariga ham o‘xshash. Bu holat fanning rivojlanish darajasini qanday ekanligi ko‘rsatib beruvchi ko‘rsatkich bo‘lib, nazariy-metodologik jihatdan mahalliy olimlar sovet davridagi qarashlari doirasidan chiqib ketolmayotganligi ko‘rsatadi.

MAIN DIRECTIONS AND SCIENTIFIC RESULTS OF RESEARCH ON THE ETHNIC HISTORY OF THE UZBEK PEOPLE

Valisher Abirov

Senior Teacher

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Uzbek, ethnogenesis, ethnic history, people, nation, ethnographer, source scholar, Uzbek nation.

Abstract: During the years of independence, many scientific achievements were made in our Republic due to the research on the ethnogenesis and ethnic history of the Uzbek people. Ethnographic, archeological, anthropological expeditions were organized in different regions of the region, ancient manuscript sources were studied, scientific and cultural researches were conducted, international and republican conferences and meetings were held on the subject. Nowadays, the issue of systematic study and analysis of monographs, dissertations, scientific collections, articles and theses published within the framework of the problem is gaining urgent importance. During the more than 30-year period of Uzbekistan as an independent state, to study the scientific literature devoted to the ethnogenesis and ethnic history of the Uzbek people from the point of view of historiography, to compare their achievements and shortcomings, to determine their scientific significance and historical veracity, to monitor the development of knowledge in this regard , showing the methodology, concept and scientific results of the authors' study of the problem determines that it is an urgent research work to be carried out

in the field of historiography and ethnology of New Uzbekistan.

The history of national statehood in Uzbekistan spans more than 3,000 years. In the years of independence, in addition to research on the ethnogenesis of the Uzbek people (formation as a nation), the study of its ethnic history, that is, its history after the formation of a nation, is also important. But there are also differences among local scholars regarding the choice of criteria for distinguishing ethnogenesis and ethnic history. Some people associate ethnic history with the period when the oldest ancestors of the people appeared, while others believe that ethnic history begins with the 9th-12th centuries, that is, with the formation of the Uzbeks as a people. Many studies have been published on the ethnic history of the Uzbek people. Most of the conclusions in the studies are similar to each other, even similar to the conclusions of the Soviet-era research. This situation is an indicator of the level of development of the science, and it shows that theoretically and methodologically, local scientists are not able to leave the framework of the views of the Soviet era.

ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ И НАУЧНЫЕ РЕЗУЛЬТАТЫ ИССЛЕДОВАНИЙ ПО ЭТНИЧЕСКОЙ ИСТОРИИ УЗБЕКСКОГО НАРОДА

Валишер Абиров

Старший преподаватель

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: узбек, этногенез, этническая история, народ, нация, этнограф, источниковед, узбекская нация.

Аннотация: За годы независимости в нашей республике достигнуты многие научные достижения благодаря исследованиям этногенеза и этнической истории узбекского народа. В разные районы области организовывались этнографические, археологические, антропологические экспедиции, изучались древние рукописные источники, проводились научные и культурные исследования, проводились международные и республиканские конференции и совещания. В настоящее время актуальность приобретает вопрос систематического изучения и анализа монографий, диссертаций, научных сборников, статей и диссертаций, опубликованных в рамках данной проблемы. За более чем 30-летний период существования Узбекистана как независимого государства изучить с точки зрения

историографии научную литературу, посвященную этногенезу и этнической истории узбекского народа, сравнить их достижения и недостатки, определить их научные значимость и историческая достоверность, следить за развитием знаний по данному вопросу, показывать методологию, концепцию и научные результаты исследования авторами проблемы, определяет, что она является актуальной исследовательской работой, которую необходимо провести в области историографии и этнологии. Нового Узбекистана. История национальной государственности Узбекистана насчитывает более 3000 лет. В годы независимости, помимо исследований этногенеза узбекского народа (становления как нации), большое значение имеет также изучение его этнической истории, т. е. его истории после образования нации. Но среди отечественных ученых имеются и разногласия относительно выбора критериев разграничения этногенеза и этнической истории. Некоторые связывают этническую историю с периодом появления древнейших предков народа, другие считают, что этническая история начинается с IX-XII веков, то есть с формированием узбеков как нации. По этнической истории узбекского народа опубликовано множество исследований. Большинство выводов исследований схожи друг с другом, даже схожи с выводами исследований советской эпохи. Такая ситуация является показателем уровня развития науки и показывает, что теоретически и методологически отечественные ученые не способны выйти за рамки взглядов советской эпохи.

KIRISH

O‘zbekistonning eng yangi tarixida zamonaviy nazariy-metodologik, fanlararo yondashuvlarga, tarixiylik va xolislik tamoyillariga asoslangan holda tizimli o‘rganish, O‘zbekistonning eng yangi tarixi bo‘yicha dolzarb muammolarni ishlab chiqish, shuningdek, buyuk tarixiy-madaniy merosga ega bo‘lgan va jahon sivilizatsiyasining rivojiga ulkan hissa qo‘shtigan o‘zbek xalqining tarixiy o‘tmishi va bugungi kuniga baho berishda bir yoqlama yondashuvlarga yo‘l qo‘ymaslik bugungi kundagi tarix fanida zarurat hisoblanmoqda. Jahonda sodir bo‘layotgan xalqlar o‘rtasidagi urushlar ko‘p hollarda hudud-yer talashish, o‘z g‘oyaviy ta’sirini saqlab qolish doirasida sodir bo‘lmoqda. Demak har bir xalq o‘z tarixi va madaniyatini to‘laqonli anglashi lozim. Bu masalada xalqning shakllanish tarixi ham muhim ahamiyatga ega. O‘zbek xalqining etnik tarixi yuzasidan qanday ko‘lamda tadqiqotlar chop etilgan? Tadqiqotlarning natijalari va xulosalari zamonaviy fan talablariga mos tushadimi yoki o‘tgan davr natijalari bilan cheklanib qolinganmi? Mahalliy fanning rivojlanish darajasini qanday

ekanligi ko'rsatib beruvchi ko'rsatkich sanalgan fanning nazariy-metodologik jihatlari mahalliy olimlar tadqiqotlarida qanday aks etmoqda? degan savollar maqolada o'rtaga tashlanib muammoni o'rganish ko'zda tutilgan.

TADQIQOTNING USULLARI

Maqsad va vazifa: O'zbek xalqi etnik tarixining asosiy yo'nalishlari va ilmiy natijalarini ochib berish, tarixchi olimlar tomonidan yozilgan ilmiy adabiyotlar, monografiyalar, dissertatsiyalar, to'plamlar, maqolalar va mualliflarning ilmiy qarashlari, yondashuvlari, tadqiqotlari metodologiyasini o'rganish, ushbu mavzu haqida ilmiy qarashlarning shakllanishi va rivojlanish jarayonini tadqiq etish, ularning natijalarini ko'rsatib, asosiy konsepsiyalar, metodologik asoslarni hamda yakuniy xulosalarni aniqlash maqolaning maqsadi sanaladi. Ko'rsatilgan yo'nalishdan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar qo'yilgan:

- mustaqillik yillari tadqiqotlarida o'zbek xalqi etnik tarixi masalalari xususida bildirilgan fikr – mulohazalarni izchil tartibda o'rganish;
- o'zbek xalqi etnik tarixi muammolari haqidagi shakllangan ilmiy qarashlarni yoritish hamda ularni tahlil qilish;
- mustaqillik yillaridagi tadqiqotlarida o'zbek xalqi etnik tarixi muammosining yoritilishi ko'rsatish, etnik tarixi muammosini etnografik, manbashunoslik, arxeologik, antropologik, lingvistik va boshqa soha ilmida tahlil etish;
- mustaqillik davrida mazkur masalani o'rganishdagi yangicha yondashuv usullarini ko'rsatish;
- etnik tarixga oid masalalar yuzasidan erishilgan ilmiy yutuqlarni umumlashtirish, munozaralari masalalarni aniqlashtirish asosida bu boradagi yangi tadqiqot yo'nalishlarini ko'rsatib berish;
- mavjud ilmiy adabiyotlar haqida ma'lum mualliflar bo'yicha muntazam tartibda aniq va ilmiy asoslangan ma'lumot berish;
- bosqichma – bosqich asosida shakllangan turli qarashlar, fikrlar va yondashuvlarni yoritib berish;
- mustaqillik davrida mahalliy tarixchi olimlar va boshqa soha vakillarining asarlarini tahlil etish;
- o'zbek xalqi etnik tarixiga oid asosiy yo'nalishlarni, ilmiy natijalarini e'lon qilish.

Usullar: O'zbek xalqi etnik tarixining asosiy yo'nalishlari va ilmiy natijalarini o'rganishda zamnaviy tarix fani tamoyillari nazariy-metodologik, tarixiylik, xolislik, xronologik, tarixiy-qiyosiy, tarixiy-taqqoslash, tarixiy-tipologik, tizimli-yondashuv, tizimli-tahlil, strukturali-vazifaviy, strukturali-tizimli, sintez, analiz, tarixiy-genetik kabi usullardan foydalanildi.

NATIJALAR/MUHOKAMA

O'zbek xalqi etnik tarixini o'rganishda elshunos K. Shoniyofovning xizmatlari e'tiborga loyiq. XX asr 50-90 – yillarda olimning muammoga bir qator monografiya va maqolalari¹ nashr etildi. Olim bu yillardagi o'zbek etnogenezida bevosita qatnashgan qarluqlar, qipchoqlar, qang'lilar to'g'risida chuqur tarixiy-etnografik tadqiqotlar olib bordi. Bu tadqiqotlarning har birida o'zbek xalqiqning etnik tarixi va etnogenezi, unga asos bo'lgan qabilalar va elatlari,

¹ Шаниязов К. Ш. Узбеки-карлуки (историко-этнографический очерк). – Ташкент, 1964. – 195 с.; К этнической истории узбекского народа. – Ташкент, 1974. – 342 с.; Кипчаки в узбекском этнической среде в дооктябрьский период (процессы интеграции) // Этнические процессы у национальных групп Средней Азии и Казахстана. – М., 1980. – С. 136–156.; О роли карлукского компонента в этногенезе узбекского народа // ОНУ. – 1981. №6. – С. 28–40. (Uzbeks-Karluks (historical and ethnographic essay). – Tashkent, 1964. – 195 p.; Towards the ethnic history of the Uzbek people. – Tashkent, 1974. – 342 p.; Kipchaks in the Uzbek ethnic environment in the pre-October period (integration processes) // Ethnic processes in national groups of Central Asia and Kazakhstan. – M., 1980. – Pp. 136–156.; On the role of the Karluk component in the ethnogenesis of the Uzbek people //ONU. – 1981. No. 6. – Pp. 28–40.)

ularning tarkibiy qismlari va joylashgan hududlari, o'zbek xalqi shakllanishida asosiy unsurlarni tashkil qilgan qabilalar, Movarounnahr hududidagi tashkil topgan dastlabki turkiy davlatlar, ularning ijtimoiy-siyosiy tarixi va hakozolar iomiy asoslangan holda yoritib berilgan². D. Hoshimova elshunos olimning ilmiy ishlarini nazardan o'tkazganda, etnos nazariyalari kelib chiqib tahlil qilganligini estalib o'tish joiz. Mustaqillik yillarda chop etilgan maqolalari³ o'zbek xalqi shakllanish jarayoni, uning ba'zi nazariy masalalari, Movarounnahr aholisining Temur va temuriylar davrida etnik tarkibiga bag'ishlandi.

“O'zbek xalqining shakllanish jarayoni” nomli monografiyası⁴ esa olimning o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi masalalariga doir uzoq yillik davomidagi izlanishlarining natijasi edi. Muallif, o'zbek xalqining asosiy negizini Movarounnahrda, Xorazmda, Toshkent vohasida va ularga tutashgan hududlarda qadimdan yashab kelgan turg'un turkiyzabon aholi tashkil qilgan degan qat'iy xulosaga kelgan. O'zbek xalqining etnogenetik jarayonini esa, miloddan avvalgi III – milodiy V asr o'rtalarida Qang' davlati doirasida sodir bo'lgan⁵. Olimning yozishicha, bu davlat etnik tarkibida saklar, sakaraulkar, assianlar, massagetlarning ayrim guruhlari obiyalar, toxarlar, sug'diyalar va boshqa eron tilli mahalliy etnoslar bo'lgan. Miloddan avvalgi II – milodiy I-II asrlarda Tangitog', shimoli-sharqiy hududlaridan usunlarning ayrim guruhlari, Xitoyning shimoli-g'arbiy mintqalaridan va Sibirda yashagan di, dinlin, tele, xun va boshqa turkiy tilli ko'chmanchi etnoslarning ayrim guruhlari Qang' davlati hududiga kelib o'mnashadi⁶. Bu davrda ikki tilga (eron va turkiy) mansub etnoslarning uchrashishi murakkab etnogenetik jarayonga sabab bo'lgan va bunda turkiy etnoslar hissasi katta bo'lgan. Turkiy tilning Markaziy Osiyoda keng tarqalishida xun va usun hamda ular tarkibidagi turkiyzabon qabilalar muhim rol o'ynagan. Muallifning mulohazasidan bilish mumkinki, sak qabilalaridan biri qang'arlar ham turklashgan. Qang'ar etnosini o'zbek elatining shakllanishiga asos solgan turkiy qatlama bo'lsa, eroniylar tilli sak qabilalaridan biri bo'lgan qang'arlarning turkiy etnoslar ta'sirida turklashgani, “turkiy qatlama” deb atalib o'zbek elatining asosi sifatida ko'rsatilishiga savol tug'ilishi tabiiy. Til masalasi etnik belgi deb qaralsa, bu yerda masalani “genetik” jihatdan tadqiq etish aniqroq va to'g'ri xulosa beradi. Markaziy Osiyo ikki daryo oralig'i ko'chmanchi aholisining jismoniy xususiyatlarini zamonaviy texnologiya va yangi metodlar asosida qayta ko'rib chiqish va o'rganish joiz⁷.

² Хошимова Д. Ф. Ватан тарихшунослигига ўзбек халқининг этник тарихи ва этногенезининг ўрганилиши (XIX аср ўрталари XX аср): Тарих фан номзод... дис. – Тошкент, 1997. – Б. 100–101. (The study of the ethnic history and ethnogenesis of the Uzbek people in the historiography of the homeland (mid-19th - mid-20th century): candidate of history... dis. – Tashkent, 1997. – Pp. 100–101.)

³ Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни ҳакида баъзи фикр-мулоҳазалар // “Ўзбекистонда ижтимоий фанлар” илмий журнали. – Тошкент, 1996. №6. – Б. 79–87; Темур ва темурийлар даврида Мовароуннарх аҳолисининг этник таркиби // “Шарқшунослик” илмий тўплам. – Тошкент, 1996. №7. – Б. 143–153; Ўзбек халқининг этногенезига оид баъзи назарий масалалар // “Ўзбекистонда ижтимоий фанлар” илмий журнали. – Тошкент, 1998. №6. – Б. 31–44. (Some opinions about the formation process of the Uzbek nation // "Social sciences in Uzbekistan" scientific journal. – Tashkent, 1996. No. 6. – Pp. 79–87; The ethnic structure of the population of Movarounnahr in the period of Timur and Timurids // "Oriental studies" scientific collection. – Tashkent, 1996. No. 7. – B. 143–153; Some theoretical issues related to the ethnogenesis of the Uzbek people // "Social sciences in Uzbekistan" scientific journal. – Tashkent, 1998. No. 6. – Pp. 31–44.)

⁴ Шониёзов К. Ш. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 462 б. (The formation process of the Uzbek people. – Tashkent: Sharq, 2001. – 462 p.)

⁵ Шониёзов К. Ш. Қанғ давлати ва қанглилар. – Тошкент: “Фан”, 1990. – 168 б., Ўзбек халқи шаклланиш жараёнининг айrim масалалари // “Ўзбекистонда ижтимоий фанлар” илмий журнали. – Тошкент, 1996. №6. – Б. 80–81., Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 84. (The state of Kang and the people of Kang. – Tashkent: "Fan", 1990. – 168 p., Some issues of the process of the formation of the Uzbek people // "Social Sciences in Uzbekistan" scientific journal. – Tashkent, 1996. No. 6. – Pp. 80–81., The formation process of the Uzbek people. – Tashkent: Sharq, 2001. – P. 84.)

⁶ Шониёзов К.Ш. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 84. (The formation process of the Uzbek people. – Tashkent: Sharq, 2001. – P. 84.)

⁷ Рашидов Н. Марказий Осиё кўчманчи аҳолиси жисмоний антропологияси ўрганилиши муаммо ва камчиликлари // “Фан тарихи ривожига академик А.Р.Муҳаммаджоновнинг қўшган ҳиссаси”. – Тошкент, 2020.– Б 333-334.(Problems and shortcomings of the study of physical anthropology of the nomadic population of

Afsuski, mustaqillik yillarda antropologiyaning genetika sohasi rivojlanishda orqada qoldi. A. Asqarov esa, Qang‘ davlatining markaziy xududlarida etnohududiy birlik tashkil topishi, iqtisodiy-xo‘jalik birlik, etnomadaniy maydon, o‘zbek xalqiga xos antropologik tip, yangi etnos – qang‘ar elati atrofida Qang‘ davlat konfederatsiyasi tashkil topishini o‘zbek xalqining ikkinchi bosqichi davomida sodir bo‘lganligini yozadi⁸. K. Shoniyofov eftaliylarning etnik tarixini turkiy xalqlar ilk ajdodlari bilan bog‘liq deyishni o‘rinli deb biladi va bu fikrini S. Tostov, A. Mandelshtam, N. Pigulevskaya asarlariga tayangan holda asoslashga urinadi. J. Kamolov eftaliylarning etnik tarkibi masalasida xitoy yilnomalarida keltirilgan “bu davlatni tashkil yetgan qabilalar xun qabilalari ittifoqiga mansub”⁹ bo‘lganligini qayd etadi.

Mintaqada vujudga kelgan siyosiy tuzumlar, turk va turkesh xoqonligi (VI – VIII), Arab xalifaligi (VII asr o‘rtalari – IX asr), O‘g‘uz (VII – X), Qarluq (IX – X), Somoniylar davlati (IX – X) va boshqa yuz bergen siyosiy o‘zgarishlar, K. Shoniyofov fikricha, o‘zbek xalqi etnik tarixi bilan bevosta bog‘liq¹⁰. Muallif bu jarayonlarda tukiyzabon xalqlarning tutgan o‘rnini muhimroq hisoblaydi, asrlar davomida mintaqadagi eroni va hindiy-yevropa til turkumidagi xalqlar turkiy xalqlarga aralishib turklashib ketganligiga urg‘u beradi. K. Shoniyofov tadqiqoti bo‘yicha, VI – VIII asrlarda Movarounnahr va Xorazm aholisini quyidagicha tasniflaydi. 1) qadimdan dehqonchilik, hunarmandchilik va tijorat bilan shug‘ullanib kelayotgan fors-eron tilli so‘g‘diylar, xorazmiylar va boshqalar; 2) dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan kun kechirib kelayotgan turkiyzabon aholi (o‘troqlashib qolgan qang‘arlar, xioniyalar, eftaliylar va Turk xoqonliklari davrida kelib turg‘unlashib qolgan, bir qancha boshqa qabilalar); 3) yarim o‘troq va yarim ko‘chmanchi bo‘lib yashayotgan turkiy tilli va fors-eron tilli etnik guruhlar; 4) ko‘chmanchi, turkiy tilli qabilalar. Asrlar davomida ikki til vakillari aralashib yashab, qorishish jarayoni kechgan. Turk xoqonligi davrida Zarafshon vodiysida va Qashqadaryo vohasida turkiyzabon aholi son jihatdan tobora ko‘payadi. Bularning ko‘pchiligi Yettisuvdan va Sirdaryo bo‘ylaridan kelib o‘rnashgan edilar¹¹. Turkesh xoqonligi (VII asr oxiri – VIII asr boshlari) davrida Yettisuv aholisi bilan Movarounnahr aholisi o‘rtasidagi etnik, iqtisodiy va madaniy aloqalarda ma’lum o‘zgarishlar bo‘lgan. Bu xoqonlikning etnik tarixi masalasida mustaqillik yillarida mahalliy tadqiqotchilar tomonidan jiddiy ilmiy izlanishlar olib borilmadi. K. Shoniyofov bu borada, turkesh uyushmasi tarkibidagi qabila va urug‘larning katta qismi o‘zbek xalqi tarkibiga kirib, uning etnogenetik jarayonida faol qatnashganligini ta’kidlaydi.

Muallif qarluqlar masalasida, ularning Turk xoqonligi va Qoraxoniylar davlati siyosiy hayotida muhim rol o‘ynaganligini nazarda tutib, Qarluqlar davlatida yangi sulolaning qaror topishi, Qoraxoniylar davlatining vujudga kelishiga sabab bo‘ldi deb hisoblaydi. O‘zbek elating shakllanishida qatnashgan etnik guruhlar nafaqat Movarounnahrda, balki Yettisuvda, Sharqiy Turkistonda, Sirdaryo bo‘ylarida Orol dengizining janubi-g‘arbiy mintaqalarida, Xorazmda, Afg‘onistonning shimolida, Xurosonda ham yashaganini ta’kidlab, O‘zbek ajdodlari elat bo‘lib, Qarluq, Somoniylar va Xorazm davlatlari chegarasida shakllanganlar deb yozadi¹². Olimning o‘zbek elati shakllanish jarayonida ishtirot etgan qarluq va xalach qabilalariga oid fikrlarida farqli jihatlarni kuzatamiz. Ba’zi o‘rinlarda qarluq va xalachlarni alohida qabila

Central Asia // "Contribution of Academician A.R.Muhammadjanov to the development of the history of science". – Tashkent, 2020. – Pp. 333–334.)

⁸ Аскаров А. А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. – Тошкент: Университет, 2007. – Б. 231. (Ethnogenesis and ethnic history of the Uzbek people. – Tashkent: University, 2007. – P. 231.)

⁹ Камолов Ж. Эфталитлар тарихига оид айрим мулохазалар: манбалар ва тадқиқотлар асосида// “Фан тарихи ривожига академик А. Р. Мұхаммаджоновнинг құшған ҳиссасы”. – Тошкент, 2020. – Б. 161–164. (Some reflections on the history of Hephthalites: based on sources and researches// "Development of the history of science academician A. R. Muhammadjanov's contribution". – Tashkent, 2020. – Pp. 161-164)

¹⁰ Шониёзов К. Ш. Ўзбек халқининг шакланиши жараёни. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 142. (The formation process of the Uzbek people. – Tashkent: Sharq, 2001. – P. 142.)

¹¹ Шониёзов К. Ш. Ўзбек халқининг шакланиши жараёни. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 149. (The formation process of the Uzbek people. – Tashkent: Sharq, 2001. – P. 149.)

¹² Шониёзов К.Ш. Ўзбек халқининг шакланиши жараёни. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 339. (The formation process of the Uzbek people. – Tashkent: Sharq, 2001. – P. 339.)

sifatida ko'rsatsa, xalachlarni ba'zi o'rnlarda qarluqlar qabilasi tarkibida deb ko'rsatadi. K. Shoniyofov Toxariston va Afg'oniston hududlaridagi qarluqlar son jihatidan ko'p bo'limgani, chorvador qismi uzoq vaqtlargacha hatto o'z etnik nomlarini saqlab qolganlar deb hisoblaydi. Tarixdan ma'lumki, mintaqada XV – XVI asrlarda yirik davlat uyushmalari ushbu hududlarni ham o'z ta'sir doirasiga olgan. Muallif ta'kidlashicha, qarluqlarning XIV – XV asrlarda ikki qatlami bo'lgan. 1) Farg'onada, Toshkent vohasida, Toxaristonda milodiy VI asrdan buyon mahalliy aholiga aralashmay dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanib kelgan qarluqlar o'z etnik nomini saqlab kelgan. 2) Mo'g'ullar hukmronligi davrida (XIII – XIV asrning 60 – yillari) tashkil topgan. Olim birinchi qatlamdag'i o'troqlashgan qarluqlarning nima uchun mahalliy aholiga aralashmay qolishi sabablariga to'xtalmagan. Biroq bu hudularda ilk o'rta asrlardan etnoslararo munosabatlar, qorishuv jarayoni faol kechganligini o'z asarida ko'plab urg'u berib o'tgan. Hozirgi kunimizga qadar O'zbekiston hududidan tashqaridagi qarluqlar nafaqat o'z nomi, balki o'zlarini alohida xalq (el) sifatida hisoblamoqda. Qarluq elini birlashishga chorlaydigan madhiyasi bo'lib, unda tarixdag'i makoni Oltoy, Tyan-Shan, Badaxshon ekanligini, tog'lar yonbag'rida hayot kechirganliklari, Osiyoda Chingizzon davlat qurgan yerlarda shonli tarixi va buyuk xoqoni borligini ko'rsatib, kelajakda ham o'z nomlarini saqlab qolish kuylanadi. Buni hozirgi Tojikiston hududidagi qarluqlar misolida ko'rshimiz mumkin¹³. Bu masalada shaxsning jamiyatda o'zini qaysi xalq vakili sifatida bilishi, mansubligi ko'proq rol o'ynamoqda. Shuning uchun, bu masalani kelgusi tadqiqotlarda fandagi zamonaviy nazariyalarning ayrim hisobga olib, o'rganish maqsadga muofiq sanaladi. Muallif mulohazasidan¹⁴ tushunish mumkinki, Movarounnahrda XIV – XV asrlarda yashagan turkiyzabon etnosning ko'pchiligi muqim yashovchi mahalliy aholi bo'lgan, ular allaqachon etnik birlik bo'lib shakllangan keyinchalik o'zbek nomini olgan xalq edi.

K. Shoniyofov "Temur va temuriylar davrida Movarounnahr aholisining etnik tarkibi" nomli maqolasida¹⁵ Temur va temuriylar davridagi yirik qang'li, qarluq, argu (argin), Nurota turkmanlari, qipchoqlar kabi etnik guruhlarni ko'rsatadi. XIV – XV asrlar davomida esa Movarounnahrda mo'g'ul qabilalari va turklashgan mo'g'ullardan sulduz, orlat, mo'g'ul, totor, uyrot, nayman, kuralos, bahrin, merkit va boshqa qabilalar, turg'un yashovchi voha aholisi ta'sirida, aksariyat ko'pchiligi o'troqlashgan. Ma'lumki, shakllangan o'zbek elating Amir Temur va temuriylar davridagi etnik tarixi va etnomadaniy taraqqiyotiga barlos, jaloyir, qavchin kabi etnik guruhlari ham faol ta'sir qilgan. XVI – XVII asrlarda shakllangan mintaqqa xalqlari iqtisodiy va madaniy aloqalarda bo'lib keldi, olimning mulohazasiga ko'ra, bu asrlarda o'zbek guruhlari tojiklar tarkibiga, ba'zi tojik aholisi o'zbeklar tarkibiga kirishi davom etgan. K. Shoniyofovning ilmiy xulosasiga ko'ra, "IX-X asrlar davomida Movarounnahr va unga tutash mintaqalarda yashovchi xalqlar bir-birlari bilan yaqinlashib, qorishib boradilar, ularda iqtisodiy va madaniy umumiylig hosil bo'ladi. Eng asosiysi ularda o'zlikni anglash hissiyoti kuchayadi. O'zbek ajodolari IX – X asrlarda (aniqrog'i 840-940 yillar davomida) alohida etnik birlik (elat) bo'lib shakllanadilar"¹⁶. Kitobning oldingi sahifalardagi mulohazalarida esa, IX – X asrlarda o'zbek ajodolaringin alohida jamoa, elat bo'lib shakllanish jarayoni oxirlamagan, buning uchun elatning shakllanish darajasini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlar rivojlanib, qat'iyashib qolishi uchun vaqt kerak edi, degan fikri yozgan. Olimning bu masalada, aniq vaqtni ko'rsatishidagi xulosalari, Markaziy Osiyoda bu davrda kechgan juda murakkab etnoslararo jarayonlarning yechimini ko'rsatish bilan bog'liq.

¹³ <https://www.youtube.com/watch?v=NaVWIVMsX2Q>

¹⁴ Шониёзов К.ИШ. Ўзбек халқининг шакланиш жараёни. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 391–392. (The formation process of the Uzbek people. – Tashkent: Sharq, 2001. – Pp. 391–392.)

¹⁵ Шониёзов К.ИШ. Темур ва темурийлар даврида Моваруннхр аҳолисининг этник таркиби // "Шарқшунослик" илмий тўплам. – Тошкент, 1996. №7. – Б. 143–153. (The ethnic structure of the population of Movarounnahr in the period of Timur and Timurids // "Oriental studies" scientific collection. – Tashkent, 1996. No. 7. – Pp. 143–153.)

¹⁶ Шониёзов К. ИШ. Ўзбек халқининг шакланиш жараёни. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 337. (The formation process of the Uzbek people. – Tashkent: Sharq, 2001. – P. 337.)

K. Shoniyofovning asarlaridagi qoida va xulosalarni tasdiqlovchi o‘zbeklarga oid etnografik hamda antropologik ma’lumotlarni bir qator rossiyalik mualliflarning, jumladan, N. Bichurin, L. Oshanin va V. Zezenkova, V. Ginzburg va T. Trofimova va boshqalarining asarlarida uchratish mumkin¹⁷. Akademikning mustaqillik yillarda chop etilgan maqolalari va “O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni” monografiyasida, o‘zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixini “etnos” nazariyasi talabiga binoan etnos paydo bo‘lgandan to xalq bo‘lib shakllangan davrigacha kechirgan etnik va tarixiy jarayonlari ko‘rsatilib berdi. Ayni shu tomonlama elshunos olimning tadqiqotlarini o‘zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixini o‘rganish uchun muhim asarlar deb hisoblash o‘rinli bo‘ladi.

B. Ahmedov “O‘zbek ulusi” nomli asari¹⁸ o‘zbek xalqining etik tarixida ko‘chmachi o‘zbeklar rolini, ta’sir doirasini ko‘rsatib berdi. O‘zbek xalqining kelib chiqishini Dashti Qipchoq ko‘chmanchi o‘zbeklari bilan bog‘iq degan qarashlarning noilmiy ekanligini ilmiy asosladidi. Ko‘chmanchi o‘zbeklar masalasiga oid tarixiy manbalar, xususan, H. Vamberining “Buxoro tarixi”, Ma’sud ibn Usmon Ko‘histoniyning “Tarixi Abulhayrxoniy”, Kamoliddin Binoiyning “Shayboniynoma”, Muhammad Solihning “Shayboniynoma”, Abulhayr Fazlulloh ibn Ro‘zbehonning “Mehmonnomai Buxoro”, Mirzo Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy”, Mahmud ibn Valining “Bahr ul-asror” kabi manbalar ma’lumotlarini taqdim etdi.

O‘rtal Osiyo va Qozog‘istonda istiqomat qiluvchi turkiy xalqlar IX asrdan boshlab tojiklar bilan qo‘silib, bir davlat tarkibida, somoniylar (819-1005), xorazmshohlar (995-1220), qoraxoniylar (1005-1370), temuriylar (1370-1500), shayboniylar (1500-1601), ashtarxoniyalar (1601-1757) davlati tarkibida hayot kechirdilar. Shayboniyarning yagona davlati XVI asrning boshlarida (1512) ikki qismga: Buxoro va Xiva xonligiga bo‘linib ketdi, 1709-yili Farg‘ona o‘lkasi Buxoro xonligi tarkibidan ajralib chiqdi va bu yerda Qo‘qon xonligi tashkil topdi. “Har uchala xonlikda ham turkiyzabon o‘zbeklar, turkmanlar, qirg‘izlar, qozoqlar va qoraqalpoqlar bilan forsiy zabon tojiklar birgalikda ahil yashab keldilar” – degan mulohaza yuritadi¹⁹. O‘zbek xalqining shakllanishi yuzasidan muallif X asr oxiri – XI asr boshlarida qoraxoniylar bilan birga Oltoy, Yettisuv va Sharqiy Turkistondan Movarounnahrga ko‘chib kelgan bir talay qabilalar: turgashlar, to‘xsilar, qorliqlar, chigillar, o‘g‘izlar, arg‘in va boshqa turkiyzabon qabilalar o‘lkaning sharqiy eron va turk tillarida so‘zlashuvchi aholisi tarkibini etnik jihatdan boyitdi, turkiy etnik qatlarning ustunligini bir qadar ta’milaganligini yozadi. Shunday qilib, B. Ahmedov Qoraxoniylar davrida (X – XI asrlar) o‘zbek xalqi to‘la shakllanib, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlandi degan xulosani beradi. Eski o‘zbek tiliga asos bo‘lmish qorliq-chigil lahjasi rivoj topdi va yozma adabiyot darajasiga ko‘tarilib, o‘zbek xalqining umumiyligi bo‘lib qoldi²⁰ deb ma’lumot beradi. Olim o‘zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixida “ko‘chmanchi o‘zbeklar” masalasini chuqur tadqiq etdi. Muammoni bevosita chuqur tadqiq etishga kirishmagan bo‘lsada, o‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi to‘g‘risidagi o‘z fikr-mulohazalarini ma’lum qilgan.

A. Asqarov va B. Ahmedov hammulliflikda “O‘zbekiston ovozi” gazetasida e’lon qilgan maqolasida²¹ yozishicha, o‘zbek tili, tarixi va madaniyati sof turk tili deb bo‘lmaydi. Markaziy Osiyo xalqlarining o‘q tomiri bitta bo‘lib, ular sak-massaget, so‘g‘diy, xorazmiy, boxtar,

¹⁷ Дониёров А. Х. Ўзбек халқи этногенези ва этник тарихининг мавзуий тарихшунослиги // “ФарДУ Илмий хабарлари” илмий журнали, – Фарғона, 2010. №2. – Б. 54–63. (Thematic historiography of the ethnogenesis and ethnic history of the Uzbek people // "FarDU Scientific News" scientific journal, Fergana, 2010. No. 2. – Pp. 54–63.)

¹⁸ Аҳмедов Б. Ўзбек улуси. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси, “Нур”, 1992. – 152 б. (Uzbek nation. - Tashkent: People's heritage named after A. Qadiri, "Nur", 1992. – 152 p.)

¹⁹ Аҳмедов Б. Биз киммиз ўзи? // Шарқ ўлдузи. – Тошкент, 1992. №1. – Б. 177. (Who are we? // Star of the East. – Tashkent, 1992. No. 1. – P. 177.)

²⁰ Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – Б. 199. (Lessons from history. – Tashkent: Teacher, 1994. – P. 199.)

²¹ Аскаров А., Аҳмедов Б. Ўзбек халқининг келиб чиқиши тарихи. (дастлабки мулоҳазалар) // “Ўзбекистон овози”. 1994 йил 20 январь. (The history of the origin of the Uzbek people. (initial comments) // "Voice of Uzbekistan". January 20, 1994.).

chochlik va parkonalik edi degan xulosaga keladi. Olimlarning bu qarashi mahalliy va xorij fanida hozirgi vaqtga qadar bahsli tarzda davom etmoqda. Kelib chiqishini turkiy xalqlar bilan bog'lovchi va O'rta Osiyo hududlari qadim zamondan turklar vatani degan qarashlarni noilmiy deb sanaydi. Uzoq va murakkab etnik jarayonni boshidan kechirgan o'zbeklarni yaxlit xalq sifatida X asrga kelib shakllandi, hududiy, iqtisodiy, madaniy, til va tip birligiga ega bo'ldi deb hisoblaydi. A. Asqarov keyingi yillardagi tadqiqotlarida o'zbek xalqining shakllanish nuqtasini X asr deb ko'rsatmagan. Maqolada mualliflar o'zbek xalqining Dashti Qipchoqdan kirib kelgan ko'chmanchi o'zbeklardan paydo bo'lgan degan tushunchani g'ayri ilmiy qarash sifatida baholaydi. Faqat "o'zbek" atamasi Movarounnahrga XV asr oxiri – XVI boshlarida Shayboniyxon bilan birga kirib kelganligini ta'kidlaydi. K. Shoniyofov Dashti Qipchoqdan kirib kelgan ko'chmanchi o'zbeklar son jihatdan uncha ko'p bo'limgan degan fikr to'g'riligini qayd etadi.

A. Asqarov o'zbek xalqining ham kelib chiqish tarixini uch bosqichdan – etnogenezi, etnik tarix va millat tarixidan iborat deb hisoblaydi. Agar xalqlarni kelib chiqishi masalasiga doir metodologik talablardan kelib chiqadigan bo'lsak, birinchidan, etnogenezi, etnik tarix va millat tarixinining har birini alohida olganda, ularning boshlang'ich va yakuniy nuqtalari bor²². Olim o'zining monografik asarida o'zbek xalqining shakllanish jarayonini xronologik ketma-ketlikda yoritib, O'zbekiston hududlari va uning tevarak atrof hududlarida ikki yarim ming yil davom etgan etnogenetik jarayonlar natijasida, ya'ni so'g'diyalar, xorazmiylar, boxtariylar va saklarning shu zaminda bronza davridan boshlab, ular bilan yonma-yon yashab kelayotgan turkiyabon qabila va qavmlar bilan aralashuvi, qorishuvi natijasida, o'zbek xalqi XI asrda to'la-to'kis, XII asrda esa uzil-kesil shakllandi, deyish mumkin deb yozadi²³. XI-XII asr birinchi yarmida uzil-kesil shakllangan o'zbek xalqi tarkibiga XIII asr birinchi yarmidagi mo'g'ul istilolari va XVI asr boshlarida O'rta Osiyoga shayboniylarning kirib kelishi munosabati bilan o'zbek xalqi tarkibining asosi o'zgarib qolmadidi²⁴. Ta'kidlash joizki, A. Asqarovning o'zbek xalqining etnogeneziniboshlang'ich davriga oid nuqtai nazariga bugungi kungacha bir qator olimlar e'tiroz bildirib kelmoqda. Jumladan, "Andronova madaniyati" nomi ostidagi qabilalarning turkiy tilda so'zlashganligi haqidagi fikrlari ilmiy doirada bahsli bo'lib qolmoqda. K. Shoniyofov va A. Asqarovlarning o'zbek xalqining etnik birlik bo'lib shakllangan davri masalasidagi xulosalari bir-biridan keskin farq qilmaydi. Har ikki elshunos va arxeolog olimlar o'zbek ajdodlarining alohida elat bo'lib shakllanishining tugash vaqtini XI-XII asrlar atrofida ko'rsatadi.

A. Asqarov o'zbek xalqining etnik tarixi bosqichini ham uzoq davom etgan etnogenetik jarayon ekanligini ta'kidlab, uning xronologik chegarasini XII asrda to XIX asr oxiri – XX asr boshlarigacha bo'lgan davr bilan belgilaydi. Mo'g'ullar istilosini davrida turk-mo'g'ul qabilalari jaloyir, barlos, qavchin va arlotlarning mintaqasi hududlariga kirib kelgani, ularning etnogenetik jarayonlardagi ishtirokini yaxshi ko'rsatib o'tadi. Muallif monografiyasida Amir Temur va temuriyalar davridagi etnik manzara, aniqrog'i bu davrda kechgan migratsion jarayonlar, migrantlarning joylashuvi, etnoslararo integratsiya va etnik konsolidatsiya holati ko'plab materiallar asosida tahlil qilingan. Muallif ushbu davrda (XIV-XV asrlarda) Movarounnahr va unga tutash hududlarga chetdan ko'chib kelgan etnoslarni mahalliy aholi bilan yaqinlashib

²² Аскаров А.А. Ўзбек халқининг келиб чиқиши тарихи. – Тошкент: О'zbekiston, 2015. – Б. 15. (The history of the origin of the Uzbek people. – Tashkent: Uzbekistan, 2015. – P. 15.)

²³ Аскаров А.А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. – Тошкент: Университет, 2007. – Б. 252., Ўша муаллиф. Ўзбек халқининг келиб чиқиши тарихи. – Тошкент: О'zbekiston, 2015. – Б. 451. (Ethnogenesis and ethnic history of the Uzbek people. – Tashkent: University, 2007. – P. 252., The same author. The history of the origin of the Uzbek people. – Tashkent: Uzbekistan, 2015. – P. 451.)

²⁴ Аскаров А.А. Ўзбек халқи этногенези ва этник тарихининг баъзи бир назарий ва илмий-методологик масалалари // «Ўзбек халқининг келиб чиқиши: илмий-методологик ёндашувлар, этногенетик ва этник тарих» мавзусидаги Республика илмий-назарий семинар материаллари. – Ташкент, 2004. – Б. 3–10. (Some theoretical and scientific-methodological issues of the ethnogenesis and ethnic history of the Uzbek people // Materials of the Republican scientific-theoretical seminar on the topic "Origin of the Uzbek people: scientific-methodological approaches, ethnogenetic and ethnic history". – Tashkent, 2004. – Pp. 3–10.)

borishi, etnomadaniy aloqalar natijasida qorishib ketish jarayonini manbaa va adabiyotlarda materiallar asosida bayon qilgan.

XVI asr va keyingi asrlarda Dashti Qipchoqdan Movarounnahr va Xorazm hududlariga ko'chib kelganlar mahalliy aholi sonini ko'paytirish bilan birga, uning etnik tarkibini ham boyitdi. Dashti Qipchoqdan ko'chib kelgan qabilalar va mahalliy etnoslar o'rtasidagi qorishuv jarayoni, ya'ni etnoslararo munosabatlar faolligi kuzatiladi. U. Abdullayev yozishicha, tarixiy taraqqiyotning keyingi davrlarida o'zbek xalqining shakllanish jarayoni mavjud etnik guruhlarni o'zaro yaqinlashuvi (integratsiya), ayrimlarini etnik jihatidan birikishi (konsolidatsiya) va hatto keyinroq etnografik guruhlarni qorishuv (assimilyatsiya) holati rivojlanib bordi²⁵. A. Asqarov o'z tadqiqot ishida bu jarayonlarni mintaqada urug'larning aralashuvi va o'zbek xalqi tarkibiga kirishi misolida ko'rsatib bergen²⁶. Muallif xulosasiga ko'rga, Dashti Qipchoq o'zbeklarning etnik tarkibida o'z tillarini yo'qotib, turkiyda so'zlashuvchi elatlar bo'lib, antropologik tipi Janubiy Sibirni eslatgan. Ularning katta qismi O'rta Osiyo ikki daryo oralig'iga kelib o'mashgach, mahalliy aholi bilan aralashib ketishi oqibatidao'zbeklarning antropologik tipida mo'g'ul qiyofa etnik guruhlar qatlami qalinlashadi. Kitobning shu bobida 92 bovli o'zbek urug'larning manbalarda ifodalanishini jadval shaklida taqdim etdi. Bu jadval dastlab O'. Nosirovning "O'zbeklar shajarası" asarida qayd etilgan²⁷.

A. Asqarov o'zbeklarning etnik tarixi uzoq davom etgan etnomadaniy jarayon hisoblab, XIX asr oxiri – XX asrning boshlarigacha davom etganligini arxeologik, taixiy-etnografik, manbashunoslik va boshqa materiallar bilan, o'z qarashlari doirasida asoslaydi. Aynan shu davrlardan o'zbek xalqining millat tarixi boshlangan deb ko'rsatadi. A. Asqarov o'zbek xalqning etnogenezi va etnik tarixi masalasi yuzasidan olib borgan tadqiqotlarida, etnos muammmosining ilmiy-nazariy hamda metodologik tamoyillaridan kelib chiqib o'quvchiga havola qiladi. Xususan, olimning uzoq yillar davomida izlanish olib borgan va to'plagan materiallari "O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi" nomli monografiyasida tizimli jamlangan. Bu tadqiqot ishida ko'tarilgan muammolarda kitobning murakkabligiga qaramay, ularning o'ziga xos echimlari bor²⁸. Asar o'zbek xalqining etnogenezi, etnik tarixi, xalq va millat bo'lib qaror topish jarayoni bilan bog'liq ko'plab masalalarni ilmiy yechimini topib ko'rsatishga bag'ishlangan muhim tadqiqot sanaladi. So'nggi yillardagi tadqiqotlarida ikki ildizli o'zbek xalqi ilmiy g'oyasini mustahkamladi. Ularning tarixiy ildizlari neolit davriga xos Kaltaminor va Joytun madaniyatiborib taqalishini yozmoqda²⁹.

Etnograf I. Jabborov "O'zbeklarning etnik tarixi" maqolasida bu muammoni nafaqat o'zbek eli, balki hududdagi qo'shni etnoslar bilan bog'liq holda o'rganish shartligini,

²⁵ Абдуллаев У. Ўзбек халқининг келиб чиқишини ўрганишга бағишиланган қимматли асар (Аҳмадали Аскаровнинг "Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи" номли монографияси ҳақида баъзи фикр-мулоҳазалар) // Ўзбекистон моддий маданияти тарихи. – Самарқанд, 2016. №39. – Б. 22.(A valuable work dedicated to the study of the origin of the Uzbek people (some comments on Ahmadali Askarov's monograph "History of the origin of the Uzbek people") // History of the material culture of Uzbekistan. – Samarkand, 2016. No. 39. – P. 22.)

²⁶ Аскаров А. А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Тошкент: О'zbekiston, 2015. – Б. 486–508. (The history of the origin of the Uzbek people. – Tashkent: Uzbekistan, 2015. – Pp. 486–508.)

²⁷ Носиров Ў. Ўзбеклар шажараси (Этник тарихга холис назар). – Тошкент., "EXTREMUM PRESS", 2012. – Б. 378–382. (Family tree of Uzbeks (Unbiased view of ethnic history). – Tashkent., "EXTREMUM PRESS", 2012. – Pp. 378–382.)

²⁸ Бердимуродов А.Э., Матбабаев Б.Х. Академик Ахмадали Аскаров. К 80-летнему юбилею и 60-летней научно-педагогической деятельности // Ўзбекистон маддий маданияти тарихи. – Самарқанд, 2016. №39. – Б. 15. (Academician Akhmadali Askarov. To the 80th anniversary and 60 years of scientific and pedagogical activity // History of material culture of Uzbekistan. – Samarkand, 2016. No. 39. – P. 15.)

²⁹ Аскаров А.А. Ўзбек халқи – Марказий Осиёнинг азалдан туркий тилли туб жойли маҳаллий аҳолиси // TDPU Ilmiy axborotlari, Ilmiy-nazariy journali. – Тошкент, 2018. №3 (16). – Б. 2–5. (The Uzbek people are the indigenous Turkic-speaking inhabitants of Central Asia // TDPU Scientific information, Scientific-theoretical magazine. – Tashkent, 2018. No. 3 (16). – Pp. 2–5.)

³⁰ Жабборов И. Ўзбекларнинг этник тарихи // "Жаҳон адабиёти" журнали. – Тошкент, 2009. №12. – Б. 161–165. (Ethnic history of Uzbeks // "World Literature" magazine. – Tashkent, 2009. No.12. – Pp. 161–165.)

chunki O'rta Osiyo xalqlarining kelib chiqishi va shakllanishi ibtidoiy davrlardan umumiy mushtaraklikka ega ekanligini yozadi. Muallif fikricha, o'zbeklar, qirg'iz, qozoq, turkman, qoraqalpoq va tojiklar bu yerda paleolit (qadimgi tosh) davrida umumiy etnik zaminda paydo bo'lib, ming yillar davomida ularning irqiy va etnik o'ziga xos xususiyatlari shakllanib, tillari ham o'zgarib kelgan. I. Jabborov asosi ko'rsatilmagan ma'lumotlarga tayanib, Markaziy Osiyoda odam bir million yil muqaddam paydo bo'lib, taxminan eramizdan avvalgi III ming yillikda uzoq davr davomida mintaqada murakkab etnogenetik jarayonlar yuz berib, katta ko'chishlar sodir bo'lgan, asrlar osha chegaralari o'zgarib turgan o'ziga xos muayyan xo'jalik madaniy tiplar tarixiy etnografik viloyatlar va etnik birikmalar, xalq va elatlar yuzaga kelgan deb ta'kidlaydi. I. Jabborov "O'zbek xalqi etnografiyasi" nomli asarida³¹, XIV – XV asrlarda O'rta Osiyoga, jumladan Farg'ona vodiysi va hozirgi O'zbekistonning janubiy rayonlariga hamda Movarounnahrga mo'g'ul qabilalarining (jaloir, barlos, qovchin, arlat, alchin, ming, mang'it, nayman va hakozolar) ko'chib kelishi kuchayganligini yozadi. Bu borada muallif V. Bartold va boshqa rus tadqiqotchilar asarlariga suyanadi. A. Asqarov esa, barloslarni mo'g'ul emas, turk qabilasi ekanlini qayd etadi³². I. Jabborov fikricha, eng yirik ko'chish biri XV asr oxirlari va XVI asr boshlarida ro'y berib, mazkur guruhning o'ziga xosligi irqiy tuzilishida mongoloid belgilarnang ancha sezilarli ekanligi, tilida "jo'qchilar" shevasi kuchli va o'z nomini "o'zbek" deb nomlashidadir. Bu guruh turli qo'ng'iroq, mang'it, qipchoq, nayman, kenagas, saroy, xitoy, ming, yuz, qirq, qatag'on va hokazo qabilalardan iborat. Hozirgi O'zbekistonning Zarafshon, Surxondaryo va Qashqadaryo vodiylarida, Xorazm vohasi va boshqa xududlarda "o'zbek" nomi bilan atalgan turkiy qabilalar ham o'masha boshlaydi va mahalliy aholi bilan aralashib ketadi³³. Olimning bu ma'lumotlarni taqdim etishda, antropologiya va tilshunoslik ilmiy xulosalarini chetlab o'tadi. XX asr ikkinchi yarmidan boshlab mo'g'uliy irqning Markaziy Osiyo hududlariga yoyilishi davri, tilning etnik xususiyatlari, urug'larning turkumlanishi kabi masalalar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar xulosalar va tarixiy dalillar ko'rsatilgan edi. "O'zbeklar (An'anaviy xo'jaligi, turmush tarzi va etnomadaniyati) asarida yozishicha³⁴, o'zbeklarning qozoq, qirg'iz, turkman, tojik kabi xalqlar bilan etnik ildizi birligini ko'rsatib, tojik xalqi geografik joylashuvi tufayli til va irq jihatdan turkiylashmagan va yevropoid belgilarni saqlab qolgan. Ammo kelgindi ko'chmarchilar tabiiy-geografik sharoit noqulay bo'lganligi tufayli uncha uzoq turmaganlar. "Kelgindi ko'chmarchilar" deganda, muallif aynan qaysi davr, qaysi qabilalar ekanligini noaniq qoldiradi. I. Jabborov o'zbek xalqi etnik tarixiga oid mulohazalari manbasi ko'rsatilmagan ma'lumotlar, ehtimollik darajasi yuqori bo'lgan xulosalar bilan boyitilgan. I. Jabborov muallifligida nashr etilgan asarlarida o'tgan asrdagi rus olimlarining nazariyalarini, tadqiqotlari va olimning ko'plab ilmiy farazlari o'rinni yozildi.

Xitoysunos A. Xo'jayevning 2015-yilda "FA-F1-G028: Markaziy Osiyo etnik tarixiga oid sharq tillaridagi qadimiyyat va o'rta asr manbalaridagi ma'lumotlar" nomli fundamental tadqiqot loyihasi asosida "Markaziy Osiyo xalqlari tarixiga oid ma'lumotlar (Qadimiy hamda ilk o'rta asr Xitoy manbalaridan tarjimalar va tadqiqotlar)" nomli asari³⁵ yozildi. Ushbu tadqiqot

³¹ Жабборов И. Ўзбек халқи этнографияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – 320 б. (Ethnography of the Uzbek people. – Tashkent: Teacher, 1994. – 320 p.)

³² Аскаров А. А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Тошкент: O'zbekiston, 2015. – Б. 50. (The history of the origin of the Uzbek people. – Tashkent: Uzbekistan, 2015. – P. 50.)

³³ Жабборов И. Ўзбек халқи этнографияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – Б. 81.; Ўзбекларнинг этник тарихи // "Жаҳон адабиёти" журнали. – Тошкент, 2009. №12 – Б. 164. (Ethnography of the Uzbek people. – Tashkent: Teacher, 1994. – P. 81.; Ethnic history of Uzbeks // "World Literature" magazine. – Tashkent, 2009. No. 12 – P. 164.)

³⁴ Жабборов И. Ўзбеклар (Анъанавий хўялиги, турмуш тарзи ва этномаданийати). Қайта ишланган ва тўлдирилган 2-нашр. – Тошкент., "Шарқ", 2008. – 240 б. (Uzbeks (Traditional economy, lifestyle and ethnosculture). Revised and Completed 2nd Edition. – Tashkent., "Sharkh", 2008. – 240 p.)

³⁵ Хўжаев А. Марказий Осиё халқлари тарихига оид маълумотлар (Қадимий ҳамда илк ўрта аср Хитой манбаларидан таржималар ва тадқиқотлар). – Т.: "Навруз", 2015. – 332 б. (Khojaev A. Information on the history of the peoples of Central Asia (translations and studies from ancient and early medieval Chinese sources). – T.: "Navruz", 2015. – 332 p.)

ishida miloddan avvalgi VII-V asrlar oralig‘ida bitilgan “Zuo Chjuan” (“Zuo [Chyuming] bayoni”), “Ershisi shi” (“24 tarix”) deb nomlangan sulolalar tarixi majmuidan o‘rin olgan 8 ta sulola tarixlari, VIII-XII asrlar oralig‘ida yozilgan 3 ta yirik asarlardagi Markaziy Osiyo xalqlari etnik tarixiga oid ma’lumotlarning ayrim qismlari ilk bor asl manbadan o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Bundan tashqari, asarning yozilishida xitoy va uyg‘ur tillaridagi tarixiy adabiyotlar, turli xitoy lug‘atlaridan ham keng foydalanilgan. Asar ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismida mil.avv. II-I ming yillikdagi ilk turklar, III-V asrlardagi turqiylar, turk (tujyue) qabilasi, Kushon davlati asoschilarini day-ruziye (da-yuechji)lar, saklar, sute (sug‘d), Qadimgi Farg‘ona aholisi, yaypan (yuepan)larga oid tarjimalar qayd etilgan bo‘lsa, ikkinchi qismi xitoy manbalaridagi kvey-fang (guy-fang), kiang (chyang), tiyey (di) va rivem (rung) etnonimlari, xunlarning kelib chiqishiga oid yangi qarashlar, uyg‘ur etnonimi, xitoy manbalaridagi “tujyue” etnonimi, sug‘d va xitoy atamalariga doir tadqiqotlar o‘rin olgan.

Sh. Kamoliddin o‘zbek xalqining davlatchilik va etnik tarixi masalasida yuqoridaagi tadqiqotchilardan farqli ravishda Somoniylar sulolasining o‘rnini ko‘rsatishga urinmoqda. Muallifning manbashunoslik izlanishlaridagi xulosasiga ko‘ra, qadimgi o‘troq va shahar turklarining avlodlari bo‘lgan Somoniylar (XX asrda “sart” deb atalgan), 1924-yilda bolsheviklar tomonidan amalga oshirilgan ma’muriy bo‘linishdan keyin hozirgi o‘zbek xalqining etnomadaniy asosini tashkil etdilar. Somoniylar sulolasining O‘rta Osiyoda hukm surgan davri o‘zbek xalqi davlatchiligi tarixining ajralmas qismi sifatida baholanishi lozim³⁶. Olimning bu yondashuvi mahalliy va xorij tadqiqotchilari tomonidan “panturkizm” tarafdoi sifasida baholadi. Masalaga oid xulosalari bugungi kunda keng jamoatchilikda ko‘plab bahslarga sabab bo‘lib kelmoqda. Ayniqsa, qo‘shni Tojikiston ilm-fanida jiddiy taniqdiy mulohazalar yuritilayotgani kuzatilmoxda³⁷. Ayrim tojik fan olimlari (L.Boymatov) bu masalani bo‘rttirib, butun o‘zbek olimlari va ilm-fani tarixni soxtalashtirish, tojik millatini, tarixini obro‘sizlantirish deb, millat tarixchilarini qarshi javob qaytarishga chaqirmoqda. Bu esa, tarixdan yonma-yon, qorishib yashab kelgan o‘zbek va tojik xalqlarining ilmiy jamoatchiligidagi va jamiyatni o‘rtasida millatchilik hissini rivojlantirmoqda.

Mustaqillik yillarda o‘zbeklar to‘g‘risida va xalqning kelib chiqishiga bag‘ishlangan, darslik, o‘quv-uslubiy qo‘llanma hamda publisistik yo‘nalishda yozilgan ko‘plab asarlar chop etildi. L. Boboxonova va S. Bekturganovaning “O‘zbekiston va o‘zbeklar” darsligi, U. Sanaqulov “O‘zbek xalqi va tilining etnogenezi hamda etnik qatlamlari”, A. Ibrohimovning “Bizkim, o‘zbeklar. Milliy davlatchiligimiz asoslari haqida mulohazalar”, O. Nosirov, U. Sanaqulov va Sh. Eshonkulovlarning “O‘zbek xalqi va tili tarixini o‘rganishda o‘tmish manbalarning talqini” o‘quv-uslubiy qo‘llanmasi, Chorsham’ “To‘qson ikki bori o‘zbek” nomli maqolasi va boshqalarni ko‘rsatish mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek xalqining etnik tarixi yuzasidan ko‘plab tadqiqotlar chop etilgan. Tadqiqotlardagi aksariyat xulosalar bir-biriga o‘xshash, hatto sovet davri izlanishlari xulosalariga ham o‘xshash. Bu holat fanning rivojlanish darajasini qanday ekanligi ko‘rsatib beruvchi ko‘rsatkich bo‘lib, nazariy-metodologik jihatdan mahalliy olimlar sovet davridagi qarashlardan deyarli uzoqlashmaganini ko‘rsatib beradi. Mustaqillik davrida ushbu qarashlarning milliylashtirilib, “o‘zbeklikka” ko‘proq urg‘u berilganini hisobga olinmasa, nazariyani boshqa rakursda ko‘rib chiqishga, e’tiborni “bir etnosga” emas, balki shu vaqtida shakllangan ijtimoiy-

³⁶ Камолиддин Ш. С. Сомонийларнинг келиб чиқиши масаласига доир // Moziydan Sado (Echo of History, Эхо истории). – Тошкент, 2006. №4 (32). – С. 15–18.(Kamoliddin Sh. S. Regarding the issue of the origin of the Komoni// Sound from Moziy (Echo of History, Exo istorii). – Tashkent, 2006. No. 4 (32). – Pp. 15–18.)

³⁷ Давлатходжа Довуди. О дирхеме – медальоне таджикского правителя, Саманида Мансура I Б. Нуҳа (Заметки к статье Ш.С.Камолиддина «Медальон Мансура б. Нуҳа)(1) // Саманиды – уникальный исторический феномен в мировой цивилизации. – Душанбе., 2019. – С. 767–789. (About the dirham - medallion of the Tajik ruler, Samanid Mansur I B. Nukh (Notes to the article by Sh.S. Kamoliddin “The Medallion of Mansur b. Nukh) (1) // Samanids - a unique historical phenomenon in world civilization. – Dushanbe., 2019. – Pp. 767–789.)

madaniy muhitga qaratishga harakatlar sezilmaydi. Balki bu holat mahalliy olimlarning ham aybi emasdir. Chunki g'arbda rivojlangan xalq shakllanishiga oid ko'plab yangi nazariyalar o'z vaqtida ilm-fanga olib kirilmadi, proteksionizm kuchi bilan o'z qobig'iga o'ralib olish kuchli bo'lib, yangicha qarashdagi izlanishlarga yo'l berilmadi. Buning oqibatida etnologiya sohasida xalq tarixining nazariy jihatlarini rivojida turg'unlik, noqislik va jarayonlar talqinidagi noaniqlik holati yuzaga kelib, yildan-yilga muammolar chiqurlashib bordi. Ba'zi olimlarning say-harakatlari bilan ilk va o'rta asrlardagi urug'-qabilaviy munosabatlar haqidagi ma'lumotlar to'ldirilgan, aniqlashtirilgan bo'lsa, boshqalarining bir yoqlama yondashuvlari oqibatida mahalliy olimlarning "millatchilik"da ayblanishiga olib keldi. Bu esa etnotsentrizmga olib keladigan sovetcha "etnos nazariyasi"ning bugungi zamon munosabatlariga mos emasligidan dalolat beruvchi signallaridan biri hisoblanadi.